2 Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 546 p.

3 Ohlin B. Interregional and International Trade. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1933. – 617 p.



Mahalliy olimlar tomonidan soliq siyosati, bojxona ma'muriyatchiligi, eksport-import operatsiyalarida soliq nazorati va bilvosita soliqlar mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Jumladan, X.M. Kulimova eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan<sup>4</sup>. Zamonaviy institutsional iqtisodiyot tashqi savdoni faqat narx va xarajatlar bilan emas, balki institutlar sifati, shartnomalar ijrosi, huquqiy kafolatlar, korrupsiya xavfi, bojxona rasmiylashtiruv tezligi va soliq ma'muriyatchiligi shaffofligi bilan bog'liq holda talqin qiladi. Shu sababli tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishda institutsional yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki tashqi savdo subyektlari uchun soliq qoidalari qanchalik aniq, barqaror va prognozlanuvchan bo'lsa, eksport-import operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

F. Sharipov O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish masalalarini o'rgangan<sup>5</sup>. Uning tadqiqotlarida soliq siyosati tashqi savdoni tartibga soluvchi muhim iqtisodiy instrument sifatida talqin qilinadi. Muallifning fikricha, eksportni rag'batlantirish, import tarkibini maqbullashtirish, milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish va budjet tushumlari barqarorligini ta'minlash o'rtasida muvozanatli soliq siyosati yuritilishi lozim. F. Sharipov tashqi savdo faoliyatida soliq imtiyozlari, bilvosita soliqlar, bojxona to'lovlari va soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlari o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilgandagina milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligi oshishini asoslaydi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish masalalari soliq hisobining metodologik asoslari, soliq tushumlarini prognozlash, tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosati, eksport-import operatsiyalarida soliq nazorati va bilvosita soliqlar mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarida o'rganilgan. Biroq tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tartibini raqamli ma'muriyatchilik, xalqaro standartlar, eksportni rag'batlantirish va budjet barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

Umuman olganda, A. Smitning absolyut ustunlik nazariyasi, D. Rikardoning solishtirma ustunlik yondashuvi, B. Olinning ishlab chiqarish omillari nazariyasi tashqi savdoning fundamental iqtisodiy asoslarini ochib beradi. X.M. Kulimovaning eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirishga oid yondashuvi hamda F. Sharipovning tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha xulosalari esa ushbu nazariy asoslarni O'zbekiston soliq tizimi va tashqi iqtisodiy faoliyati sharoitida amaliy jihatdan boyitadi. Shu bois tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishda klassik savdo nazariyalari, institutsional yondashuvlar va milliy soliq ma'muriyatchiligi tajribasini uyg'un holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda dialektik yondashuv, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy jarayonlarni tarkibiy baholash usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishni yagona iqtisodiy mexanizm sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Ushbu mexanizmga eksport, import, soliq bazasi, bojxona to'lovlari, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, soliq nazorati va raqamli monitoring o'zaro bog'liq elementlar sifatida talqin qilindi.

Qiyosiy tahlil orqali tashqi savdoni soliqqa tortishda xalqaro amaliyotning muhim yo'nalishlari — eksportda QQS nol stavkasi, importda iste'mol manzili tamoyili, bojxona rasmiylashtiruvini raqamlashtirish, yagona darcha tizimlari va xavflarni boshqarish modellari o'rganildi. Institutsional tahlil esa soliq ma'muriyatchiligining huquqiy aniqlik, shaffoflik, axborot almashinuvi va nazorat samaradorligi bilan bog'liq jihatlarni baholashga xizmat qildi.

Maqola doirasida tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy mazmuni quyidagi mantiqiy bog'liqlik asosida o'rganildi: tashqi savdo operatsiyalari — soliq va bojxona majburiyatlari — ma'muriy nazorat — budjet daromadlari — eksport raqobatbardoshligi — iqtisodiy barqarorlik. Ushbu zanjir tashqi savdo soliq siyosatini faqat tushumlarni yig'ish vositasi emas, balki milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlovchi strategik mexanizm sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi savdo faoliyati milliy iqtisodiyotning tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan strategik sohadir. Eksport orqali mamlakat valyuta tushumlarini oshiradi, ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'shimcha qiymat yaratadi va tashqi bozorlarda raqobat tajribasini orttiradi. Import esa texnologiyalar, xomashyo, asbob-uskunalar va iste'mol tovarlari bilan ichki bozorni ta'minlaydi. Shu bilan birga, importning nazoratsiz kengayishi savdo balansiga bosim o'tkazishi, ichki ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini pasaytirishi va valyuta chiqimlarini oshirishi mumkin. Shu sababli tashqi savdo soliq siyosati eksportni rag'batlantirish va importni tartibga solish o'rtasida muvozanatni ta'minlashi lozim.

<sup>4</sup> Kulimova X.M. Eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022.

<sup>5</sup> Sharipov F. O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019.



Tashqi savdo operatsiyalarini soliqqa tortishda QQS muhim o'rin tutadi. Xalqaro amaliyotda qo'shilgan qiymat solig'i, odatda, iste'mol manzili tamoyili asosida qo'llaniladi. Eksport operatsiyalarida nol stavkadan foydalanish milliy eksportchi korxonalarining tashqi bozorlardagi narx raqobatbardoshligini saqlashga xizmat qiladi. Import operatsiyalarida QQS qo'llanilishi esa ichki va tashqi tovarlar o'rtasida teng soliq muhitini ta'minlaydi. Ammo QQSni hisobga olish va qaytarish jarayonidagi kechikishlar eksportchilar aylanma mablag'lariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun QQS ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va real vaqtda tekshirish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Bojxona to'lovlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda fiskal hamda ichki bozorni himoya qilish vazifalarini bajaradi. Ularning yuqori darajada belgilanishi ayrim hollarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilsa-da, tashqi savdo xarajatlarini oshiradi, import uskunalar va texnologiyalari qimmatlashishiga olib keladi. Shu bois bojxona-tarif siyosatida tabaqalashtirilgan yondashuv zarur [6]: strategik uskunalar, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo va innovatsion texnologiyalar bo'yicha yengillashtirilgan tartiblar qo'llanilishi, iste'mol bozorida raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi import oqimlariga nisbatan esa maqsadli nazorat kuchaytirilishi mumkin.

Tadqiqot materiallarida tashqi savdo operatsiyalarida aktivlar repatriatsiyasi, elektron kontrakt tizimi, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarni axborot tizimlari orqali tasdiqlash [7], shuningdek, eksport tovarlari uchun to'langan QQS summasini hisobga olish masalalari alohida qayd etilgan. Bu holat tashqi savdoni soliqqa tortish tizimida nazorat va rag'bat mexanizmlari o'zaro uyg'unlashtirilishi zarurligini ko'rsatadi. Agar tizim faqat qat'iy nazoratga asoslangan bo'lsa, tashqi savdo subyektlarining faolligi pasayishi mumkin; agar nazorat yetarli bo'lmasa, budget yo'qotishlari va soliq majburiyatlarini bajarmaslik holatlari ortishi mumkin. Shuning uchun optimal model nazorat, shaffoflik va rag'batlantirishni bir vaqtda qamrab olishi lozim.

Raqamli texnologiyalar tashqi savdo operatsiyalarini soliqqa tortishda sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantirmoqda. Elektron hisobvaraqa-fakturalar, elektron kontraktlar, bojxona deklaratsiyalarini avtomatik tekshirish, xavflarni baholash tizimlari, Big Data va sun'iy intellekt asosidagi tahlil soliq ma'muriyatchiligini inson omiliga bog'liqlikdan bosqichma-bosqich ozod qiladi. Natijada korrupsiya xavfi kamayadi, soliq nazoratining tanlovchanligi oshadi, halol tashqi savdo subyektlari uchun ma'muriy yuk pasayadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni soliqqa tortish tizimi samaradorligi soliq stavkalari darajasi bilan emas, balki ma'muriyatchilik sifati bilan ham belgilanadi. Germaniya amaliyotida tashqi savdo operatsiyalari Yevropa Ittifoqining yagona bojxona va soliq siyosati bilan uyg'unlashgan holda amal qiladi, eksport operatsiyalarida QQS bo'yicha nol stavka qo'llanilishi va bojxona jarayonlarining raqamli platformalar orqali boshqarilishi yuqori ma'muriy samaradorlikni ta'minlaydi. Bunday yondashuv O'zbekiston uchun tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish, eksport zanjirlarini optimallashtirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyani kuchaytirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimida foyda solig'ining o'rni ham muhim. Eksport operatsiyalaridan olinadigan foydani soliqqa tortishda ikki omilni hisobga olish zarur: birinchisi, eksportchi korxonaning tashqi bozorda raqobatbardoshligini saqlash; ikkinchisi, davlat budgeti daromadlari barqarorligini ta'minlash. Agar foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar maqsadsiz va samaradorlik mezonlarisiz qo'llanilsa, budget tushumlari qisqarishi mumkin. Agar soliq yuki keskin oshirilsa, eksportchi korxonalarining moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Demak, bu yo'nalishda samaradorlikka bog'langan, tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi va eksport qo'shilgan qiymatiga asoslangan yondashuv zarur.

1-jadval

**Tashqi savdo operatsiyalarini soliqqa tortish vositalarining iqtisodiy mazmuni<sup>6</sup>**

| Vositalar                      | Qo'llanish sohasi                                       | Asosiy vazifasi  | Iqtisodiy natija   |
|--------------------------------|---|--|--|
| Qo'shilgan qiymat solig'i      | Eksport va import operatsiyalari                        | Iste'mol manzili tamoyili asosida soliq neytralligini ta'minlash           | Eksport raqobatbardoshligi saqlanadi, importda teng soliq muhiti shakllanadi |
| Bojxona bojlari                | Tovarlar importi va ayrim eksport rejimlari             | Ichki bozorni tartibga solish va budget daromadlarini shakllantirish       | Import oqimlari maqbullashadi, mahalliy ishlab chiqarish himoya qilinadi     |
| Aksiz solig'i                  | Aksiz to'lanadigan tovarlar aylanmasi                   | Iste'mol tarkibini tartibga solish va ijtimoiy-fiskal maqsadlarga erishish | Narx orqali talab boshqariladi, budget tushumlari ortadi                     |
| Foyda solig'i                  | Eksport-importdan olingan moliyaviy natija              | Tashqi savdo subyektlari foydasidan budget daromadi shakllantirish         | Fiskal barqarorlik ta'minlanadi, imtiyozlar samaradorligi baholanadi         |
| Raqamli soliq-bojxona nazorati | Elektron kontrakt, deklaratsiya, hisobvaraqa-fakturalar | Shaffoflikni oshirish, xavflarni aniqlash va soliqdan qochishni cheklash   | Ma'muriy xarajatlar kamayadi, soliq intizomi kuchayadi                       |

6 Manba: muallif tomonidan tuzilgan.



=Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimining samaradorligi soliq siyosati va tashqi iqtisodiy siyosatning o'zaro muvofiqligiga bog'liq. Agar soliq siyosati faqat budjet tushumlarini oshirishga qaratilsa, tashqi savdo subyektlari uchun xarajatlar ortishi va eksport salohiyati pasayishi mumkin. Agar soliq imtiyozlari keng, ammo natijaviylik mezonlarisiz berilsa, budjet daromadlari qisqaradi va raqobatda tengsizlik paydo bo'ladi. Shu sababli tashqi savdoni soliqqa tortishda maqsadlilik, shaffoflik va baholanuvchanlik prinsiplari ustuvor bo'lishi lozim.

Tadqiqotda tashqi savdoni soliqqa tortish tizimida uchta asosiy muvozanat muhimligi aniqlandi. Birinchisi — fiskal muvozanat, ya'ni budjet daromadlari barqarorligini ta'minlash. Ikkinchisi — raqobat muvozanati, ya'ni mahalliy ishlab chiqaruvchi va tashqi savdo subyekti uchun adolatli shart-sharoit yaratish. Uchinchisi — ma'muriy muvozanat, ya'ni nazoratni kuchaytirish bilan tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha byurokratik bosim o'rtasidagi nisbatni saqlash. Ushbu uch muvozanat ta'minlanganda tashqi savdo soliq tizimi iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan institutga aylanadi.

Tashqi savdoni soliqqa tortishning nazariy-metodologik asoslari soliqlarning ikkilamchi tabiatini ham hisobga olishi kerak. Bir tomondan, soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantiradi; ikkinchi tomondan, ular korxonalar xarajatlari, narxlar, investitsiya qarorlari va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikka ta'sir qiladi. Shuning uchun tashqi savdo soliq siyosatida har bir instrumentning fiskal natijasi bilan bir qatorda uning tashqi savdo hajmiga, eksport geografiyasiga, import tarkibiga va korxonalar likvidligiga ta'siri baholanishi zarur.

Xalqaro standartlarga moslashuv tashqi savdo operatsiyalarini soliqqa tortish tizimi uchun alohida ahamiyatga ega. OECD VAT/GST yo'riqnomalari, Jahon savdo tashkiloti tamoyillari, Yevropa Ittifoqi tajribasi va yagona darcha mexanizmlari tashqi savdo jarayonlarida shaffoflik, soliq neytralligi va ikki marta soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan. O'zbekistonda ushbu yo'nalishlarni chuqurlashtirish tashqi savdo subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqishini yengillashtiradi va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshiradi [4].

2-jadval

**Tashqi savdoni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari<sup>7</sup>**

| Yo'nalish                | Muammo mazmuni  | Takomillashtirish chorasi  | Kutiladigan samara  |
|--------------------------|---|--|---|
| QQS ma'muriyatchiligi    | Eksportda to'langan QQSni hisobga olish va qaytarishda kechikishlar aylanma mablag'larga ta'sir qiladi. | Elektron hisobvara-faktura va kontrakt ma'lumotlarini integratsiya qilish.                   | Eksportchilar likvidligi oshadi, soliq neytralligi ta'minlanadi.        |
| Aktivlar repatriatsiyasi | Tushumlarning kech qaytishi tashqi savdo intizomi va valyuta barqarorligiga ta'sir qiladi.              | Jazo va rag'batni birlashtirgan kompensatsion mexanizmlarni qo'llash.                        | Valyuta tushumlari tezlashadi, soliq-bojxona nazorati samarali bo'ladi. |
| Bojxona rasmiylashtiruv  | Qo'l mehnati va hujjatlar ko'pligi ma'muriy xarajatlarni oshiradi.                                      | Yagona elektron darcha, xavflarni avtomatik baholash va raqamli deklaratsiyani kengaytirish. | Tashqi savdo operatsiyalari tezlashadi, korrupsiya xavfi kamayadi.      |
| Xalqaro standartlar      | Soliq va bojxona qoidalarining xalqaro talablar bilan to'liq uyg'un emasligi.                           | OECD, WTO va mintaqaviy savdo talablariga mos normativ mexanizmlarni kuchaytirish.           | Global bozorlarga kirish osonlashadi, investitsion ishonch ortadi.      |
| Ma'lumotlar tahlili      | Soliq xavflarini aniqlashda ma'lumotlardan foydalanish yetarli emas.                                    | Big Data va sun'iy intellekt asosida xavf profillarini shakllantirish.                       | Nazorat tanlovchanligi oshadi, halol subyektlar uchun yuk kamayadi.     |

Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishda raqamli platformalarning roli ortib borayotgani soliq ma'muriyatchiligining mazmunini o'zgartirmoqda. Avvalgi yondashuvlarda asosiy e'tibor hujjatlarni tekshirish va keyingi nazoratga qaratilgan bo'lsa, hozirgi sharoitda ma'lumotlar oqimini real vaqtda tahlil qilish, avtomatik moslashtirish, xavf signallarini aniqlash va tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha kompleks elektron iz qoldirish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon soliq nazoratini jazolovchi amaliyotdan profilaktik va tahliliy boshqaruv mexanizmiga aylantiradi. Soliqqa tortishda fiskal manfaat va tashqi savdo rivojlanishi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun imtiyozlar siyosatini qayta ko'rib chiqish lozim. Imtiyozlar umumiy va

7 **Manba:** muallif tomonidan tuzilgan.



muddatsiz shaklda emas, balki aniq natijalarga — eksport hajmi, qo'shilgan qiymat darajasi, yangi bozorlarga chiqish, valyuta tushumlari barqarorligi, investitsiya kiritish va soliq intizomiga bog'langan holda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv imtiyozlarning fiskal yo'qotish emas, balki iqtisodiy qaytim beruvchi instrument sifatida ishlashini ta'minlaydi.

Tashqi savdo operatsiyalarida soliq nazoratining eng murakkab jihatlaridan biri — narxlar, shartnomalar, tovar harakati va valyuta tushumlari o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirishdir. Bu jarayonda soliq organlari, bojxona organlari, banklar, statistika idoralari va tashqi savdo subyektlari ma'lumotlarini yagona axborot muhitida integratsiya qilish talab etiladi. Ma'lumotlar uzviy bog'lanmagan sharoitda soliqdan qochish, tovar qiymatini noto'g'ri ko'rsatish, aktivlar repatriatsiyasini kechiktirish va soxta operatsiyalar xavfi yuqori bo'ladi. Ilmiy nuqtai nazardan, tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning konseptual modeli beshta blokdan iborat bo'lishi mumkin: normativ-huquqiy blok, fiskal blok, raqamli ma'muriyatchilik bloki, xalqaro integratsiya bloki va natijaviylikni baholash bloki. Normativ blok qoidalar aniqligini ta'minlaydi; fiskal blok budjet daromadlarini shakllantiradi; raqamli blok nazorat va shaffoflikni kuchaytiradi; xalqaro blok savdo standartlariga moslashuvni ta'minlaydi; baholash bloki esa siyosat samaradorligini ko'rsatkichlar asosida o'lchash imkonini beradi. Bunday model tashqi savdo soliq siyosatining amaliyotda faqat alohida soliq turlari yig'indisi sifatida emas, balki iqtisodiy o'sish, eksportni kengaytirish, importni maqbullashtirish, budjet daromadlarini barqarorlashtirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan kompleks institut sifatida ishlashini ta'minlaydi. Shuning uchun tashqi savdoni soliqqa tortish tizimida qabul qilinadigan har bir qaror uning fiskal, ma'muriy, raqobat va institutsional oqibatlari bilan birgalikda baholanishi lozim. Tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimini nazariy jihatdan to'g'ri qurish uchun uning maqsadlarini aniq ierarxiya asosida belgilash zarur. Birinchi darajada davlat budjeti daromadlarining barqarorligi turadi. Ikkinchi darajada milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash, uchinchi darajada esa tashqi savdo operatsiyalarida shaffoflik va qonunchilikka rioya etish darajasini oshirish maqsadi turadi. Bu maqsadlar bir-biriga zid emas, aksincha, to'g'ri muvofiqlashtirilganda bir-birini to'ldiradi. Masalan, eksportchilar uchun QQS mexanizmining samarali ishlashi ularning likvidligini oshiradi, eksport hajmini kengaytiradi va o'rta muddatda soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi. Konseptual jihatdan tashqi savdo soliq siyosatini to'rtta o'zaro bog'liq blokda ko'rish mumkin. Birinchi blok — fiskal blok bo'lib, u budjet tushumlari, soliq bazasi, bojxona to'lovlari va foyda solig'i orqali davlat moliyaviy resurslarini shakllantiradi. Ikkinchi blok — rag'batlantiruvchi blok bo'lib, eksportchi korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishini yengillashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish va xalqaro kooperatsiyani kengaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchi blok — nazorat bloki bo'lib, tovar harakati, kontraktlar, valyuta tushumi va soliq hisobotlari o'rtasidagi ma'lumotlar uyg'unligini ta'minlaydi. To'rtinchi blok — institutsional blok bo'lib, huquqiy barqarorlik, raqamli infratuzilma, xalqaro standartlar va idoralararo axborot almashinuvini qamrab oladi.

Ushbu bloklar o'rtasidagi bog'liqlik tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishda tizimli yondashuvni talab etadi. Masalan, foyda solig'i stavkasini o'zgartirish faqat fiskal nuqtai nazardan emas, balki eksportchilarning narx siyosati, investitsiya rejalari, xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlari va valyuta tushumlari dinamikasi bilan birgalikda baholanishi kerak. Xuddi shuningdek, bojxona imtiyozlari import uskunalarini arzonlashtirishi mumkin, ammo ular mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ta'siri va budjet tushumlari nuqtai nazaridan ham tahlil qilinishi zarur.

Tashqi savdo soliq siyosatini takomillashtirishda tavakkalchilikka asoslangan nazorat tizimi alohida ahamiyatga ega. Barcha subyektlarni bir xil darajada tekshirish ma'muriy xarajatlarni oshiradi va halol tadbirkorlar faoliyatiga ortiqcha to'siq qo'yadi. Shu sababli eksport-import operatsiyalari bo'yicha xavf profillarini shakllantirish, tovar turi, kontrakt qiymati, kontragent mamlakati, to'lov muddati, soliq tarixi va bojxona deklaratsiyalari ma'lumotlarini integratsiya qilish zarur. Bunday yondashuv nazoratni maqsadli, tezkor va natijaviy qiladi. Milliy amaliyot uchun muhim masalalardan biri tashqi savdo operatsiyalarida soliq nazorati va tadbirkorlik erkinligi o'rtasidagi muvozanatni saqlashdir. Tashqi savdo subyektlari uchun qoidalar aniq va barqaror bo'lmasa, tadbirkorlar o'z investitsiya va eksport rejalari uzoq muddatli asosda shakllantira olmaydi. Shuning uchun soliq qonunchiligiga tez-tez o'zgarishlar kiritishdan ko'ra, oldindan e'lon qilingan, bosqichma-bosqich joriy etiladigan va ta'siri baholangan mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, tashqi savdo soliq siyosatini xalqaro savdo bitimlari va mintaqaviy integratsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirish muhim. Yevropa Ittifoqi GSP+ tizimi, Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish jarayoni, mintaqaviy transport-logistika yo'laklari va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo hamkorligi tashqi savdo soliq ma'muriyatchiligiga yangi talablar qo'yadi. Bu talablar tovar kelib chiqishi, sertifikatlashtirish, texnik reglamentlar, bojxona qiymati va soliq hisobotlarining xalqaro talablarga mos bo'lishini taqozo etadi.



| Konseptual blok         | Mazmuni  | Asosiy instrumentlar  | Natijaviy ko'rsatkichlar   |
|-------------------------|--|---|--|
| Fiskal blok             | Budjet daromadlarini shakllantirish va soliq bazasini kengaytirish             | QQS, foyda solig'i, aksiz, bojxona to'lovlari                           | Soliq tushumlari, budjet barqarorligi, soliq bazasi o'sishi      |
| Rag'batlantiruvchi blok | Eksport va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash    | QQS nol stavkasi, maqsadli imtiyozlar, bojxona yengilliklari            | Eksport hajmi, eksport geografiyasi, qo'shilgan qiymat ulushi    |
| Nazorat bloki           | Tashqi savdo operatsiyalarida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash        | Elektron kontrakt, xavflarni baholash, idoralararo ma'lumot almashinuvi | Repatriatsiya darajasi, soliq xavfi, qonunbuzarliklar kamayishi  |
| Institutsional blok     | Qoidalar barqarorligi, raqamli infratuzilma va xalqaro standartlarga moslashuv | Yagona elektron darcha, Big Data, WTO va OECD talablari                 | Ma'muriy xarajatlar, rasmiylashtiruv vaqti, investorlar ishonchi |

Tashqi savdo soliq siyosatining fiskal, rag'batlantiruvchi, nazorat va institutsional yo'nalishlari yagona konseptual tizimni tashkil etadi. Ushbu tizim tashqi savdo operatsiyalarini soliqqa tortishni faqat budjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida emas, balki eksport faolligini oshirish, soliq bazasini kengaytirish, qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun qulay institutsional muhit yaratishga xizmat qiluvchi kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi. QQS, foyda solig'i, aksizlar va bojxona to'lovlari budjet barqarorligini ta'minlansa, maqsadli imtiyozlar, nol stavka, bojxona yengilliklari va raqamli nazorat mexanizmlari tashqi savdo ishtirokchilarining faolligini oshirish hamda eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Tashqi savdo soliq siyosatining samaradorligi alohida soliq turi yoki ma'muriy chora bilan emas, balki fiskal manfaatlar, rag'batlantirish mexanizmlari, nazorat instrumentlari va institutsional infratuzilmaning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi. Elektron shartnoma, yagona elektron darcha, xavflarni baholash, idoralararo ma'lumot almashinuvi va Big Data texnologiyalaridan foydalanish soliq ma'muriyatchiligini shaffoflashtirib, repatriatsiya darajasini oshirish, qonunbuzarliklarni kamaytirish va rasmiylashtirish vaqtini qisqartirishga xizmat qiladi. Natijada tashqi savdo soliq siyosati budjet tushumlarini barqarorlashtirish bilan birga, eksport geografiyasini kengaytirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvini jadallashtiruvchi muhim institutsional-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortish tizimi milliy iqtisodiyotda ko'p funksiyali institut ekanini ko'rsatdi. U bir vaqtning o'zida davlat budjeti daromadlarini shakllantiradi, tashqi savdo oqimlarini tartibga soladi, eksportchi korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi va tashqi iqtisodiy munosabatlarda shaffoflikni ta'minlaydi. Shu sababli mazkur tizimni takomillashtirishda faqat soliq stavkalarini o'zgartirish bilan cheklanish yetarli emas; ma'muriyatchilik, raqamlashtirish, xalqaro standartlar va natijaviylik mezonlari ham birgalikda rivojlantirilishi zarur:

Birinchidan, tashqi savdo faoliyatini soliqqa tortishda QQS mexanizmini yanada soddalashtirish va raqamlashtirish maqsadga muvofiq. Eksport tovarlari uchun to'langan QQSni hisobga olishda elektron kontrakt, elektron hisobvara-faktura, bojxona deklaratsiyasi va bank ma'lumotlari o'rtasida avtomatik bog'liqlik yaratilishi lozim [8]. Bu eksportchilarning aylanma mablag'lari muzlab qolishini kamaytiradi va soliq neytralligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, tashqi savdo operatsiyalarida aktivlar repatriatsiyasini ta'minlashda faqat jarima qo'llash emas, balki belgilangan muddatda aktivlarni mamlakatga qaytargan subyektlar uchun rag'batlantiruvchi-kompensatsion mexanizmlarni kengaytirish zarur. Bu yondashuv tashqi savdo intizomini kuchaytiradi, valyuta tushumlari barqarorligini ta'minlaydi va biznes uchun adolatli munosabat muhitini shakllantiradi.

Uchinchidan, bojxona va soliq ma'muriyatchiligini yagona raqamli ekotizim sifatida rivojlantirish lozim. Big Data, sun'iy intellekt, xavflarni boshqarish tizimi, blokcheyn elementlari va yagona elektron darcha mexanizmlari orqali tashqi savdo operatsiyalarini real vaqtda monitoring qilish imkoniyati kengaytirilishi maqsadga muvofiq. Bu korrupsiya xavfini kamaytiradi, nazorat tanlovchanligini oshiradi va halol tadbirkorlar uchun ma'muriy yukni pasaytiradi.

8 Manba: muallif tomonidan tuzilgan.



To'rtinchidan, eksport va import operatsiyalarini soliqqa tortishda xalqaro standartlarga moslashuvni chuqurlashtirish zarur. OECD VAT/GST tamoyillari, Jahon savdo tashkiloti qoidalari va yagona darcha tizimlari bo'yicha ilg'or amaliyotlar milliy qonunchilik va ma'muriyatchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi tashqi savdo faoliyatining prognozlanuvchanligini oshiradi.

Beshinchidan, tashqi savdo soliq siyosati samaradorligini baholash uchun kompleks indikatorlar tizimini joriy etish lozim. Unda budjet tushumlari, eksport hajmi, import tarkibi, QQS qaytarish muddati, bojxona rasmiylashtiruv vaqti, aktivlar repatriatsiyasi darajasi, soliq xavflari va tadbirkorlar uchun ma'muriy xarajatlar kabi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda baholanishi kerak. Bunday yondashuv tashqi savdoni soliqqa tortish tizimini strategik boshqarish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – Chicago: University of Chicago Press, 1977. – 1152 p.
  2. Ricardo D. *On the Principles of Political Economy and Taxation*. – London: John Murray, 1817. – 546 p.
  3. Ohlin B. *Interregional and International Trade*. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1933. – 617 p.
  4. OECD. *International VAT/GST Guidelines*. – Paris: OECD Publishing, 2017. – DOI: 10.1787/9789264271401-en.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3802378>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-3802363>
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-4812419>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5231-son "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-5599666>
- Kulimova X.M. Eksport-import operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirish: dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022.
- Sharipov F.G'. O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish: dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 73 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>